



**SO'Z TURKUMLARINI O'QITISHDA KLASTER VA BBB USULIDAN
FOYDALANISH**

Tursunova Diloromxon Erkinjon qizi

*Namangan Davlat Universiteti magistratura lingvistika o'zbek tili yo'nalishi 2-
kurs magistranti.*

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik bo'limining eng muhim bo'limlaridan biri sanalgan Morfologiya va uning o'rganish ob'yekti sanalgan so'z turkumlari hamda ularni ona tili darolarida o'rganish usullari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, metod, klaster, interfaol, so'z turkumlari, texnik vositalar.

Ma'lumki, muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ta'limni hech qachon e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki ta'lim har qanday jamiyatning yuragini tashkil qiladi. Har qanday jamiyatning muvaffaqiyati uchun yangi kashfiyotlarni yaratish, bu kashfiyotlarni bilish orqali ta'limga erishish mumkin. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarning o'sishi odamlarga berilayotgan ta'lim sifatiga bog'liqdir. Sifatli ma'lumotga ega bo'lgan odamlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'sishi va rivojlanishiga olib keladigan islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni yaxshilashga qodir.


Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan ijodkor bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, har qanday savollarga tayyot bo'lmog'i darkor.

Bunday holda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. O'yinlar esa o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma'qul. Birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki bolalar hamisha o'zini ko'rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da shaxs va jamiyat munosabatlarida uyg'unlikni vujudga keltirish




ehtiyoji mavjudligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Shunga ko'ra, pedagogika fanida shaxsning imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradigan o'quv jarayonini tashkil etishning turli yo'llarini izlash alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol usullarini tizimli qo'llashni talab etadi. Interfaol usullarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishini ta'minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.



Interfaol usullarni qo'llash bo'yicha umumiy metodik tavsiyalar:

1. Ishlash uchun joyni tayyorlash. Sinfni shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishlash uchun qulay joylashishlari zarur.
2. Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo'lish. Barcha tinglovchilar har bir nuqtayi nazarga sabrli bo'lib, so'z erkinligini hurmat qilishlari kerak.
3. Tinglovchilarning guruhlarga bo'linishiga jiddiy e'tibor berish.
4. Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo'lishi kerak.
5. Tinglovchilarning mashg'ulotga ruhiy tayyorgarligiga ko'maklashish.
6. Interfaol usullar asosida mashg'ulotlar o'tkazilganda guruhda ta'lim oluvchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. 4-6 kishidan iborat bo'lgan kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.



Ona tili darslarida qo'llanishi tavsiya etiladigan interfaol usullar

1. Grammatikani o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi: Bilaman/bilishni xohlayman/bilib oldim (B/BH/B).



Masalan,

1. Ona tilida sifat mavzusi o‘tilishi o‘quvchilarga e’lon qilinadi.
2. Mavzu bo‘yicha jadvalning birinchi (bilaman) va ikkinchi (bilishni xohlayman) deb nomlangan qismlarini to‘ldiradilar.
3. So‘ngra mavzuga oid material tarqatiladi. Tarqatma material o‘zaro raqib guruhlar tomonidan o‘qib o‘rganilgandan keyin jadvalning uchinchi (bilib oldim) bandi to‘ldiriladi.
4. Guruhlar tomonidan to‘ldirilgan jadvallar o‘zaro taqqoslanadi.

<u>Bilaman</u>	<u>bilishni</u> <u>xohlayman</u>	<u>bilib oldim</u>
aniqlovchi- aniqlanmish, qaratqich- qaralmish munosabati	-sifat so‘z tartibi -sifatning imlosi	-sifatning o‘ziga xosligini
-	-	
-	-	
-	-	

BBB usulining afzalliklari:

Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusini yoritishda “Klaster” usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. Masalan, sifat so‘z turkumiga oid tushunchalarni ular quyidagi tartibda tarmoqlarga ajratishlari mumkin:



Sifat soʻz turkumini oʻrganishda interfaol usullarni qoʻllash

Sifatni oʻrganish sistemasi materialli leksik va grammatik tomondan [izchillik bilan boyitib](#), murakkablashtirib borish koʻzda tutadi. Oʻquvchilar 1-sinfda sifatning leksik maʼnoni koʻzatadilar, sifatga qanday? qanaqa? Soʻrogʻini berib oʻrganadilar; 2-sinfda sifat soʻz turkumi sifatida oʻrgangan, 3-sinfda ilgari oʻrganilganlar takrorlanib, grammatik materialga bogʻliq holda *–roq* qoʻshimchasi bilan yasalgan qiyosiy va ortirma darajadagi sifatlarning yozilishi oʻrgatiladi (termin

aytilmaydi). Ona tili va oʻqish darslarida oʻquvchilar nutqi yangi sifatlarni bilan boyitiladi, oldindan maʼlum boʻlgan sifatlarning maʼnosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni oʻrganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat, predmetning belgisi (rangi, shakli, hajmi, koʻrinishi, maza, taʼmi, hidi, oʻrni va paytga munosabati)ni bildiradi.

Sifatning leksik maʼnosi uni ot bilan bogʻliq holda oʻrganishni talab etadi. [Sifatni tushunish uchun](#) 1-sinfdayoq bolalar eʼtibori sifatning otga bogʻlanishini aniqlashga qaratiladi. Oʻquvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda soʻroq yordamida gapda soʻzlarning bogʻlanishini aniqlash koʻnikmasi oʻstiriladi, yaʼni ular gapdagi sifat va ot dan tuzilgan soʻz birikmasini ajratadilar (termin aytilmaydi).

Keyingi sinflarda bu bogʻliqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning simantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashning leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) rejada olib borishni talab etadi.

Boshlangʻich sinflarda “sifat” mavzusi quyidagi izchillikda oʻrganiladi: 1. Sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-sinf). 2. Sifat haqida tushuncha berish. (2-sinf). 3. [Shu grammatik mavzu](#) bilan bogʻliq holda ayrim sifatlarning yozilishini oʻzlashtirish (3-sinf).

Sifat bilan dastlabki tanishtirish. (1-bosqich) sifatining leksik maʼnosi va soʻroqlari ustida kuzatish oʻtkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil boʻlib uni rangi mazasi, shakli, xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning maʼnolarini aniqlash talab etiladi. Oʻqituvchi predmetni yoki



uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar. Masalan, qanday? Olma-qizil, shirin, yumaloq olma. [Suhbat](#)

asosida o'quvchilar olma so'zni nima? So'rog'iga javob bo'lib predmet nomini bildirishi, qizil, shirin, yumaloq kabi so'zlar qanday? So'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisini bildirishini aniqlaydilar, xulosa chiqariladi. Qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlar predmet belgisini bildiradi.

O'quvchilar belgi bildirgan bunday so'zlarning nutqimizdagi rolini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarni tushurib qoldirib, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Bu darslarda ko'rgazmalaridan keng foydalanadi.

O'quvchilar qanday? Qanaqa? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni o'zlashtirishlari uchun quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

1. So'roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so'zlarni tanlash.
2. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish.
3. Matndan kim? Yoki nima? So'rog'iga javob bo'lgan so'zni tanlab aytish va yozish.
4. Tayanch so'zlar va rasm asosida gap va hikoyacha tuzish.

2-bosqichda asosan 2 vazifa: "Sifat" tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar [nutqini](#) yangi sifatlarni bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hal qilinadi.

Sifatlarning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatlarning xususiyatlarini umumlashtirish asosida o'quvchilaruning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos ko'rsatkichlarini ko'rsatadilar. a) predmet belgisini bildiradi. b) qanday yoki qanaqa? So'rog'iga javob bo'ladi v) gapda otga bog'lanib, shu ot bilan so'z birikmasi hosil qiladi, [ikkinchi](#) darajali bo'lak vazifasida keladi.

O'quvchilarning sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o'stirish uchun:



1. Berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish.

2. Berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash; ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi (tulki) 3. Predmetlarning [belgisiga qarab](#) topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi fikrini aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o'zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonimlar ustida ishlash, o'qish darslarida o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

3-bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda –roq qo'shimchasi bilan qo'llanilgan sifatlarni va ko'm-ko'k, yam-yashil sifatlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi.

Ish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilarning nutqini o'stirishga qaratiladi. Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda tanlab qo'yish, gapda sifat bilan bog'lanish otni (so'z birikmasini) [aniqlab yozish](#); otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda –roq qo'shimchasi bilan qo'llanilgan yaxshiroq, aqilliroq kabi, shuningdek, [tip-tiniq](#), sap-sariqiq kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi oshgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish asoslaniladi.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.



Xullas, ona tili ta'limida bu kabi metodlar va usullardan foydalanish dars davomida o'quvchilarning faolligini ta'minlash bilan bir qatorda ularni mavzu doirasida mustaqil fikrlashga hamda o'z g'oyalarini dadil ifodalashga o'rgatadi.

O'zbek tili ta'limi jarayonida bir qancha interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborotlarni klasterga ajratish u ko'p variantli fikrlashni, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarni erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi. Klasterlarga ajratishni dars davomida, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. Asosan u yangi fikrlarni uyg'otish va muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) . Toshkent. "Sharq nashriyot–matbaa konserni. 1999-yil, 1-maxsus son.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 1997-y 29-avgust.
3. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
4. A. G'ulomov, M. Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet nashriyoti. 2001-y.
5. O'zbek tilining asosiy imlo qoydalari" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti 1995-y.
6. Y. G'ulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B. Mirzaahmedov. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti 1975-y.
7. O. Roziqov, M. Mahmudov, B. Adizov, A. Hamroyev "Ona tili didaktikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi nashriyoti 2005-y.
8. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo'raboyeva. Ona tili. 5 – sinf uchun darslik. Toshkent "Ma'naviyat" 2004- y.
9. Ne'matov, A. G'ulomov, M. Qodirov, M. Abduraimova. Ona tili. 6 – sinf



uchun darslik. Toshkent. O'qituvchi" 2003- y.

10.Ne'matov, A. G'ulomov, M.Abduraimova, M. Qodirov. Ona tili. 7 – sinf

uchun darslik. Toshkent. O'qituvchi" 2000- y.

